# TA'LIM MUASSASASI BOSHQARUVIDA SOG'LOM VA IJODIY MUHITNI YARATISHNING ASOSIY OMILLARI

***Mustofayeva Dilshoda Hamro qizi***
*Oriental universiteti Ta'lim menejmenti magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda umumta'lim maktablari boshqaruvida jamoa ichida sog'lom va ijodiy muhitni yaratishdagi asosiy omillar haqida ma'lumotlar beriladi.
**Kalit so'zlar:** Ta'lim-tarbiya, maktab, rahbar, boshqaruv, sog'lom, ijodiy, omillar
Hozirgi vaqtda zamonaviy sifatli ta'lim va jamiyat rivojlanishi istiqbollari orasidagi bog'liqlik yaqqol ko'zga tashlanadi. Rivojlanishning innovatsion yo'liga o'tgan mamlakat uchun ta'lim tizimiga olg'a qarab siljish uchun rag'batlantirshni berish hayotiy jihatdan muhimdir. Bu shu haqida xulosa chiqarishga imkon beradiki, ta'lim tizimida innovatsion jarayonlarning sabablarini, tuzilmasini, dinamikasini va ehtimoliy kelajagini tadqiq qilishga mavjud ijtimoiy buyurtma shakllangandir. Mazkur ijtimoiy buyurtmaning sub'ektlari bo'lib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustivor yo'nalishlari qatoriga innovatsion faoliyatni ham qo'shgan davlat; umuman olganda, rivojlanishning innovatsion yo'lini tanlab olgan va uning asosi sifatida umumiy ta'limning rivojlanishiga o'tkir ehtiyoj sezayotgan butun jamiyat; hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarda talab kuchli bo'lgan sifatli ta'limni olishidan manfaatdor bo'lgan oila; shaxsiy salohiyatini yuzaga chiqarishi o'zi o'qiydigan maktabning ta'lim imkonyatlariga bog'liq bo'ladigan o'quvchi sanaladilar.
So'nggi o'n yilliklarda ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar ta'limda yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish va amalga oshirish yo'li bilan umumta'lim maktablarini modernizatsiyalashning yo'llari izlab topilishini rag'batlantirdi. Bunga erishish boshqaruv sifatini oshirish orqali mumkin bo'lib, uning ko'rsatkichi sifatida ta'lim faoliyatining innovatsionligi sanaladi.
Bugungi ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarda innovatsionlik asosan ta'lim faoliyatining aniq va uyg'un holda tashkil etilishiga bog'liq bo'ladi. Mana shunga bog'liq holda bosh rol eng avvalo, tashkilot rahbariga ajratiladi, chunki, aynan uning kasbiy va shaxsiy sifati butun ta'lim jarayoni qanchalik samarali tashkil etilganligi bog'liq bo'ladi. Faqat ta'lim muassasasi rahbari rahbarlikning to'g'ri faoliyatini tanlash orqali ta'lim muassasasidagi innovatsion jarayonlarga samarali ta'sir ko'rsatishi mumkindir. Bu borada mos holdagi boshqaruv faoliyatining shakllantirilishi hisobiga umumta'lim maktabining barqaror innovatsion rivojlanishini ta'minlovchi boshqaruv kishi, jamiyat va davlatning manfaatlari yo'lida zamonaviy ta'limni rivojlantirishning ob'ektiv ehtiyoji bo'lib hisoblanadi.
Bunga ta'lim muassasasini rivojlantirishning strategik maqsadi sifatida uning innovatsion tipdagi muassasaga aylantirilishini, taktik maqsad sifatida esa shunga mos holdagi boshqaruv faoliyatini tanlab olish yo'li bilan erishish mumkin. innovatsion jarayonlar ustidan samarali boshqaruv eng avvalo, muammolari hal qilish metodologiyasining asoslanganligi, metodologik yondashuvning mosligi, ya'ni, boshqaruv faoliyati tadqiqotning tayanch tushunchalari, tamoyillari va metodlari jamlanmasi sifatida mos holdagi nazariy-metodologik asosda qurilishi bilan belgilanadi. Dastavval, muammo maydonini, aynan olganda esa – innovatsion ta'lim muassasasi, innovatsion jarayon, faoliyat, salohiyat, boshqaruv faoliyati kabilarni bayon qiluvchi tayanch tushunchalarni tavsiflab o'tamiz.
Innovatsion ta'lim muassasasining mohiyati uning maqsad-vazifalarining o'ziga xosligi bilan belgilanib, bu yerda ta'lim jarayoni iqtidorlilarni "yetishtirish"ga, iqtidorli bolalarning intellektini, shaxsiy imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratiladi. M.M.Potashnikning fikriga ko'ra, tizimli yangiliklar asosida yaratilgan ta'lim muassasalarini biz innovatsion maktablar deb yuritamiz. Bular yangicha tip (ko'rinish)dagi ta'lim muassasalari bo'lib, ularning o'ziga xos

maqsad-vazifalari, o‘z missiyasi, ijtimoiy buyurtmachilarning o‘z doirasi, o‘ziga xos funksiyalari mavjuddir.
Ta’lim muassasalarini rivojlantirishning amaldagi (passiv-moslashuvchan) va innovatsion (rivojlanuvchi) tiplari farqlanadi. Bunda boshqaruv qarorlari ehtimoliy va ularga nisbatan ilgarilanma holda yuzaga keladigan reaksiyani amalga oshiruvchi ijtimoiy-pedagogik o‘zgarishlarni hisobga olgan holda qabul qilinadi. Mana shundan kelib chiqib, ba’zi ta’lim muassasalari kundalik mavjud bo‘lish tartibida (amaldagi), boshqalari esa rivojlanish tartibida faoliyat olib boradilar. Aynan rivojlanish tartibidagi muassasalar innovatsion muassasalarga mansubdir, chunki, ularning pedagogik tizimlari shaxs va jamiyatning doimiy o‘sib boruvchi ehtiyojlarini qondirishga doimiy yaqinlashish rejimida bo‘ladilar.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Djurayev R. Ta’lim menejmenti. T.: Voris-nashriyot. 2006 yil.
2. Safarova R. O‘quvchilarda o‘zaro do‘stona munosabatlarga asoslanib hamkorlikda faoliyat ko‘rsatish ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonini tashkil etish tamoyillari va parametrlari. T.: Fan-texnologiya. 2013.
3. Turg‘unov S. O‘qituvchilarning kasbiy mahorat va kompetentligini rivojlantirish. T.: Sano-standart. 2012.
4. Safarova R. O‘quvchilarda o‘zaro do‘stona munosabatlarga asoslanib hamkorlikda faoliyat ko‘rsatish ko‘nikmalarini shakllantirishga oid nazariy-amaliy yondoshuvlar. T.: Fan-texnologiya. 2012.
5. Поташник М.М. Управление современной школой (В вопросах и ответах). М., 1997.